QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SHO‘RLANGAN TUPROQLARI SHAROITIDA JO‘XORINING O‘SISHI-RIVOJLANISHI VA KO‘CHAT QALINLIGI

UDK: 63.631

Shimbergenova Gulzina Jaksilikovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining sho‘rlangan tuproqlari sharoitida jo‘xorini yetishtirishda turli sug‘orish tartiblarining, o‘sishi-rivojlanishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, sho‘rlangan tuproqlar, jo‘xori, sho‘rlanish, o‘sish-rivojanish.

Kirish Qurg‘oqchilik va iqlim o‘zgarishi tufayli chorva mollariga yem-xashak yetishmasligi tufayli dunyo bozorida go‘sht va go‘sht mahsulotlarining narxi keskin ortishi kuzatilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharitida chorvachilik fermer xo‘jaliklarida tuproqni organik moddalar bilan boyitish, meliorativ holatini yaxshilash, sho‘rlanishni kamaytirishga qaratilgan agrotexnik tabirlarni qo‘llash, ozuqa ekinlarini yetishtirish, em-xashak ekinlarining sug‘orish agrotexnologiyasini ishlab chiqish va yuqori ko‘kat massasini olish hamda aholini arzon go‘sht va go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlash uchun chorvachilik sohasining to‘yimli yem-xashak bazasini mustaxkamlashga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazish dolzarbdir.

Paxtachilik ITI ning Oqqovoq stansiyasida 1973-1975 yillarda sudan o‘ti beda bilan qo‘shib ekish agrotexnikasi o‘rganilgan. Ekinlar don-o‘t ekadigan seyalkada 3 aprelda tor qatorlab ekilgan. Sudan o‘tining ekish me’yori 16 kg, bedaniki 24 kg/ga deb belgilangan. Qo‘shib ekishda komponentlarning ildiz tizimini rivojlanishi o‘rganilgan, tuproqda organik moddalarni to‘planishi aniqlangan. Tajribaning birinchi yili ang‘iz qoldiqlari eng yaxshi variantlarda 23,51 s/ga, ildiz qoldiqlari 84,54 s/ga, shu jumladan, sudan o‘ti ildizi - 74,59 s/ga, beda

ildizi - 9,40 s/gani tashkil qilgan. Tajribaning 2-3 yillari faqat beda ildizi tashkil qilgani uchun umumiy ko‘rsatkichlar kamaygan [1; b.1-58.; 2; b.32-35.; 3; 49-51-b].

Tadqiqot usullari: Tadqiqot o‘tkazish jarayonida dala tajriba ishlarida tuproqning agrofizik, agrokimyoviy xususiyatlari va o‘simlikda fenologik kuzatuvlar O‘zPITIning “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari”, “Методы агрофизических, агрохимических и микробиологических иследований в поливных хлопковых раёнах” uslubiy qo‘llanmasidan foydalanilgan holda olingan ma’lumotlarning variatsion – statistik taxlili B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubi asosida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari. Qoraqalpog‘iston Respublkais Chimboy tumani sho‘rlangan tuproqlari sharoitida jo‘xori ekinida o‘tkazilgan fenologik kuzatuvlar va tuproq hamda o‘simlik namunalarini olish “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” O‘zPITIning uslubiy qo‘llanmasi [1.7] asosida amalga oshirildi. 2023 yili tajriba maydoniga jo‘xori urug‘lari gektariga 20 kg me’yorda ekildi va unib chiqishi miqdorini aniqlash bo‘yicha fenologik kuzatuv ishlari olib borildi xamda olingan ma’lumotlar batavsil jadvalda keltirib o‘tildi. O‘simlikning qo‘chat sonini aniqlash bo‘yicha dala tajribalari har bir variant ya’ni delyankadan 14,2 metr kvadrat maydonchada aniqlandi. Ekilgan urug‘liklarning miqdori tuproqdan unib chiqishi ekin urug‘ ekilgandan 7 kundan boshlab har 2 kunda aniqlash ishlari o‘tkazilgan.

Sug‘orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga nisbatan 65-65-60% tartib bo‘yicha sug‘orish ishlari amalga oshirilgan tajriba variantida 05.05.2023 yil holatiga 17,7 ta ko‘chat unib chiqib 28% tashkil qilib va ikki kundan o‘tib 88 dona, 55,6%, 09.05.2023 yil holatiga 109 dona va foiz ko‘rsatkichida 68,9 bo‘lganligi aniqlangan. Hamda 11.05.2023 yil holatiga ko‘ra 118 ta ko‘chat unib chiqib 87,3% va 13.05.2023 yil kelib 151 ta ko‘chat bo‘lgan bo‘lsa 95,6% tashkil qildi. Sug‘orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga nisbatan 70-

70-60% tartib bo‘yicha sug‘orish ishlari olib borilganda 27 ta ko‘chatlarni unib chiqishi 17% tashkil qilib, 07.05.2023 yil holati bo‘yicha 86 ta ko‘chat soni 54,4% bo‘lib 09.05.2023 yil holatida 107 ta ko‘chat soni bo‘lib 67,7% 11.05.2023 yil holatida 140 ta ko‘chat soni bo‘lib 88,6% tashkil qilib 13.05.2023 yil holatida 152 ta ko‘chat soni bo‘lganda 96,2% bo‘lgani kuzatildi. 3-variantimizda sug‘orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga nisbatan 75-75-65% tartib bo‘yicha 05.05.2023 yil holati bo‘yicha 25 ta ko‘chat soni bo‘lganda 15,8% tashkil qilib 07.05.2023 yil holati bo‘yicha esa 91 ta ko‘chat soni bo‘lganda 57,6% bo‘lgani aniqlandi. Hamda 09.05.2023 yil bo‘yicha 105 ko‘chat bo‘lganda 66,5% bo‘lib, 11.05.2023 yil holati bo‘yicha 144 ta ko‘chat soni bo‘lib 91,1% tashkil qilib 13.05.2023 yil holatida 148 ta ko‘chat bo‘lib 93,7% tashkil qilgani aniqlangan.

Tajriba dalasida jo‘xori o‘simligini 2023-yilda biometrik va fenologik kuzatuvlar olib borilganda sug‘orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga nisbatan 65-65-60% tartib bo‘yicha 1-iyunda o‘simlik bo‘yi 10,8 sm, barg soni 4,9 dona/tup 1-iyul holatiga ko‘ra o‘simligi 71,6 sm, barg soni 12,8 dona/tup 1-avgust holati bo‘yicha o‘simlik bo‘yi 156,2 sm, barg soni 14,8 dona/tup bo‘lgani aniqlandi. Sug‘orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga nisbatan 70-70-60% tartib bo‘yicha sug‘orishlar olib borilgan variantlarimizda, 1-iyun holatiga ko‘ra o‘simlik bo‘yi 9,7 sm, barg soni 4,6 dona/tup 1-iyul holatiga ko‘ra o‘simlik bo‘yi 72,3 sm, barg soni 12,4 dona/tup 1-avgust holatiga ko‘ra 152,8 sm, barg soni 14,5 dona/tup bo‘lgani kuzatildi. Sug‘orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga nisbatan 75-75-65% tartib bo‘yicha 1-iyun holatiga ko‘ra 11,6 sm, barg soni 5,5 dona/tup, 1-iyul holatiga ko‘ra o‘simlik bo‘yi 81,4 sm, barg soni 13,6 dona/tup 1-avgust holatiga ko‘ra 172,8 sm barg soni 15,4 dona/tup bo‘lgani qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Nurmatov Sh, Mirzajonov Q, Avliyoqulov A, Bezborodov G. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Uslubiy qo‘llanma, O‘zPITI. 2007., B-63

Бодров Н.М. Сравнителная эффективност хлопковых севаоборотов с тремя и двумя полями кормовых култур. Труды СоюзНИХИ, выпуск XXV 1973, s.32-35

Xojasov A.S., Reyimov N.B., Hamidullayev J.U., Allaberganov T.D., Srashova G.A. “Turli sug‘orish usulida urug‘lik bedaning o‘sishi va rivojlanishi” O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi №3(21) 2005y., B. 49-51.